

SOLIQ TUSHUNCHASI

Qayumova Nilufarxon Rasulovna
Furqat tumani kasb-hunar maktabining
Biznes asoslari fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliq tushunchasi, soliq tarixi va uning faoliyati hamda soliq turlari bilan shug'ullanish prinsiplari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Soliq tushunchasi, soliqlarni o'rganish, soliq turlari, soliq tarixi.

Soliq, davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta'minlash uchun davlat organlari tomonidan tashkilot va jismoniy shaxslardan yig'ib olinadigan to'lovga aytiladi. Davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai soliqlar hisoblanadi. Shuningdek, soliq iqtisodiy turkum sifatida, sof daromadning bir qismini budjetga jalb qilish shakli bo'lib, moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Tarixi

Soliqning kelib chiqishi davlatning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, juda qadimiy tarixga ega. Tarixiy manbalarda bundan 3760-yil muqaddam Bobil davlatida Hammurabi qonunlari bilan soliqning joriy etilgani to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Hozirgi davrda ham davlat bajaradigan vazifalarni mablag' bilan ta'minlash muammosi soliqning obyektiv zarurligini keltirib chiqaradi.

Undirish usuliga ko'ra, to'g'ri va egri Soliqga bo'linadi. To'g'ri Soliq molmulk va daromadga bevosita joriy qilinadi va soliq to'lovchi tomonidan oraliq vositachilarsiz to'lanadi. Keng tarqalgan turlari: qo'shilgan qiymat solig'i, daromad solig'i, meros hamda hadya solig'i, tovar aylanmasi solig'i, savdo solig'i, eksportimport solig'i va boshqa Egri soliq (aksizlar) tovar (xizmat)lar narxlariga yoki tariflarga kiritish mo'ljallangan va keyinchalik tovarlar iste'molchilariga yuklanadigan Soliq Davlat tuzumi xususiyatlariga ko'ra, Soliq tizimi umumdavlat (markaziy) va mahalliy (ma'muriy-hududiy birliklar) Soliq va yig'implardan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasida Soliq tizimining huquqiy asoslari, uni to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti 1997-yil 24 aprelda qabul qilingan va 1998-yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan umumdavlat Soliqi: yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) soligi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; ekologiya solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Umumdavlat Solig'i har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi. Mahalliy Soliq va yig'implar — molmulk soliq; yer solig'i; reklama solig'i,

avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligi, savdosotiq huquqi uchun yigʻim; obodonchilik ishlari uchun yigʻim va boshqa Mahalliy soliq va yigʻimlar mahalliy byudjetga oʻtkaziladi.

Davlat tomonidan undirilgan Soliq byudjet vositasida qayta taqsimlanib, soliq toʻlovchilarga sogʻliqni saqlash, maorif, ilm-fanni rivojlantirish, mudofaa, xuquqni muhofaza qilish kabi ijtimoiy zarur davlat xizmatlari orkli bilvosita yoʻllar bilan qaytadi.

Oʻzbekistonda soliq nazariyasi va amaliyotiga oid materiallar, shu sohaga doir boshqa masalalar „Soliq toʻlovchining jurnali“da (1995-yildan oʻzbek va rus tillarida chiqadi) yoritiladi.

Soliq yordamida milliy daromadning tegishli qismi taqsimlanadi va qayta taqsimlanadi. Davlat tomonidan olinadigan soliqlar hamda ularning tashkil qilinish shakl va usullari birgalikda soliq tizimini tashkil qiladi. Milliy iqtisodiyotda soliqlar quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

1. davlat xarajatlarini moliyalashtirish (**fiskal vazifasi**);
2. ijtimoiy tanglikni yumshatish (**ijtimoiy vazifasi**);
3. iqtisodiyotni tartibga solish (**tartibga solish vazifasi**).

Davlat sarflari soliq tushumlari hisobiga amalga oshsada, davlat sarflari miqyosining oʻsishi oʻz navbatida soliqlarning oʻsishini taqozo qiladi va uning darajasini belgilab beradi. Hozirgi davrda umumiy tendensiya boʻlgan davlat sarflarining va shunga mos ravishda soliq hajmining oʻsib borishini quyidagi omillar taqozo qiladi.

- Aholi sonining oʻsishi.
- Ijtimoiy soha xizmatlari sifatiga talabning ortishi va urbanizatsiya.
- Atrof-muhitning ifloslanishi.
- Daromadlar tengsizligini qisqartirish dasturlarini amalga oshirish.
- Milliy mudofaa, davlat xavfsizligini taʼminlash xarajatlari hajmining oʻsishi.

Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solish quyidagi umumiy tamoyillari asosida amalga oshiriladi:

- barcha daromadlardan, ularning manbalariga bogʻliq boʻlmagan holda soliq undirishning majburiyligi;
- soliq undirishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati;
- samarali ishlovchi korxonalarda hamda xoʻjalik yuritishning ilgʻor shakllari uchun soliq meʼyorlarining ragʻbatlantiruvchi rolini taʼminlash;
- soliq toʻlovi boʻyicha barcha subʼektlar majburiyati ustidan moliyaviy nazorat.

Soliq stavkasini belgilash bir qator tamoyillarga asoslanadi.

1. **Naflilik tamoyili** — turli shaxslardan, ularning soliqlar hisobiga moliyalashtiriladigan dasturlardan foydalanishi darajasiga qarab turlicha soliq undirilishi kerakligini bildiradi.

2. **To'lovga layoqatlilik tamoyili** — soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelishi zarur. Boshqacha aytganda, soliq solish daromadlarning adolatli taqsimlanishini taqozo qilishi zarur.

3. **Adolatlilik tamoyili** — daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo'yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur.

Soliq bo'yicha imtiyozlar qonunchilik bitimlarida belgilangan tartib va sharoitlar asosida o'rnatiladi. Amaliyotda soliq imtiyozlarining quyidagi turlari keng tarqalgan:

- ob'ektlarning soliq olinmaydigan eng kam darajasini belgilash;
- soliq to'lashdan alohida shaxs yoki ma'lum guruhlarni (masalan, urush fahriylarini) ozod qilish;
- soliq darajasi stavkasini pasaytirish;
- soliq olinadigan summadan chegirish;
- soliqli kredit (soliq olishni kechiktirish yoki soliq summasini ma'lum miqdorga kamaytirish)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadbirkorlik va biznes asoslari. I. Usmonov, N. Usmonova.
2. Tadbirkorlik. Sh. Odilov.
3. <https://kun.uz>